



DEFICIENCIES IN THE PROCESS OF CONDUCTING CASES OF ADMINISTRATIVE OFFENSES

Ilkham Abdullaev

Preventive inspector of internal affairs bodies of Samarkand region,
Lieutenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11368140>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2024

Accepted: 27th May 2024

Online: 28th May 2024

KEYWORDS

Administrative offense, offense, proceedings, rule of law.

ABSTRACT

The purpose of writing this article is to identify the shortcomings and eliminate them in the process of conducting cases on administrative violations.

MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH JARAYONIDAGI KAMCHILIKLAR

Ilxom Abdullaev

Samarqand viloyati IIB JXX XIB profilaktika inspektori, leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11368140>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2024

Accepted: 27th May 2024

Online: 28th May 2024

KEYWORDS

Ma'muriy huquqbuzarlik, huquqbuzarlik, ishlarni yuritish, qonun ustuvorligi.

ABSTRACT

Mazkur maqolani yozishdan maqsad hozirgi kunda amalyot jarayonida mamuriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonidagi yuzaga keladigan muammo kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishdan iborat.

Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda mamlakatimizda qonunchilikni yanada takomillashtirish orqali qonun ustuvorligini taminlash fuqarolarning huquqlari erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan har taraflama mukammal insonparvarlik qonuniylik hamda tizimlilik prinsiplariga asoslangan qonun normalarini yaratish vakolatli har bir davlat organlarining asosiy maqsadiga aylangan. Ushbu maqsadni amalga oshirish ortqali mamlakatimizda qonun normalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish fuqarolarni huquqlarini buzilishini oldini olish hamda ularning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Ushbu maqsad asosida Mamuriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonidagi muammolar haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida Mamuriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22 sentyabr kuni qabul qilingan "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ga asosan amalga oshiriladi. Mazkur kodeksning 271-moddasida "Ma'muriy



huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar" ko'rsatib o'tilgan bo'lib unga muvofiq

- 1) ma'muriy huquqbuzarlik hodisasi yoki alomati yo'q bo'lsa;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish paytida shaxs o'n olti yoshga to'lmagan bo'lsa;
- 3) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo'lsa;
- 4) shaxs harakatni zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida qilgan bo'lsa;
- 4¹) shaxs harakatni jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida qilgan bo'lsa;

5) amnistiya akti chiqishi, agar u ma'muriy jazo chorasini qo'llanishni bekor qilsa;

6) ma'muriy javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilingan bo'lsa;

7) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytiga kelib ushbu Kodeksning 36-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tib ketgan bo'lsa;

8) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan ma'muriy jazo qo'llanish to'g'risida vakolatli organ (mansabdor shaxs) qaror chiqargan bo'lsa yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish to'g'risida chiqarilgan qaror bekor qilinmagan bo'lsa, shuningdek mazkur fakt yuzasidan jinoyat to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan bo'lsa;

9) shaxs ishi yuritila boshlangan paytda vafot etgan bo'lsa;

10) huquqbuzarlikning oqibatlarini bartaraf etilgan taqdirda shaxsni javobgarlikdan ozod etish ushbu Kodeksning tegishli moddasida nazarda tutilgan bo'lsa;

10¹) huquqbuzar ushbu Kodeksning 21²-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha jabrlanuvchi bilan yarashgan bo'lsa;

11) agar ushbu Kodeks 164-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 165-moddasining birinchi qismida, 166-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 167-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 168-moddasida, 171-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 172, 173-moddalarida, 174-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 174¹-moddasining birinchi — sakkizinchi qismlarida, 175-moddasining birinchi, ikkinchi va beshinchi qismlarida, 175¹-moddasining birinchi qismida, 175³, 175⁴-moddalarida, 175⁵-moddasining birinchi qismida, 176² — 176⁴-moddalarida, 177-moddasining birinchi qismida, 177¹-moddasining birinchi qismida, 177²-moddasining birinchi qismida, 178-moddasining birinchi — sakkizinchi qismlarida, 178¹-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 179²-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 179⁴-moddasining birinchi qismida, 179⁵-moddasida, 215-moddasining birinchi qismida, 215¹-moddasining birinchi qismida, 227⁸-moddasining birinchi, uchinchi va beshinchi qismlarida, 227¹⁴-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 227¹⁵-moddasining birinchi qismida, 227¹⁶-moddasining birinchi va to'rtinchi qismlarida, 227¹⁸-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 227¹⁹-moddasining birinchi qismida, 227²¹-moddasida, 227²²-moddasining birinchi qismida, 227²³-moddasining birinchi qismida, 227²⁴, 227²⁵ va 227²⁶-moddalarida, 227²⁷-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar yo'l qo'yilgan buzilishlarni



huquqbuzarlik aniqlangan paytdan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va (yoki) yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa.

Yuqoridagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozim¹ deb takidlab qo'yilgan. Lekin hozirgi kunda amaliyot davomida Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonidagi ba'zi bir kamchiliklarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Masalan mamuriy huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lsada lekin huquqbuzarlik sodir etgan shaxs nomalum bo'lgan taqdirda huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs valokatli davlat organiga o'zining buzilgan huquqlarini tiklashni so'rab qilgan murojati yuzasidan dastlabki tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borish jarayonida huquqbuzarlik sodir etgan shaxs no'malum bo'lgan holatda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni tugatish yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning harakat yoki harakatsizligiga nisbatan chora ko'rish uchun huquqbuzar aniqlangunga qadar mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni to'xtatib turish haqida biror bir qonun normasi mavjud emas. Bu esa o'z o'rnida hozirgi kunda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi davlat organlariga amaliyot jarayonidagi bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xuddi shunga o'xshash jinoyat sodir etgan shaxs nomalum, bo'lgan holatda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 364-moddasi 1-qismida Jinoyat ishini to'xtatish asoslari ko'rsatib o'tilgan bo'lib unga muvofiq jinoyat sodir etishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxs aniqlanmagan taqdirda ushbu jinoyat ishi to'xtatilishi belgilab qo'yilgan shuningdek mazkur kodeksning 373-moddasida ushbu kodeksning 83-84 moddalarida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda jinoyat ishi tugatiladi deb belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ammo ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish uchun asoslar mavjud bo'lsada lekin ushbu asoslarda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs noma'lumligi sababli ushbu kodeksning 36-moddasida ko'rsatib o'tilgan mamuriy jazo chorasini qo'llash mumkin bo'lgan muddat bir yil ekanligi belgilab quyilganligiga qaramasdan mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni huquqbuzarlik sodir etgan shaxs aniqlangunga qadar to'xtatib turish yoki mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni shaxsi nomalumligi sababli tugatishni belgilovchi asoslar mavjud emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ushbu turdagi mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks"ning 271-moddasiga alohida "mamuriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs aniqlanmaganligi sababli mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish " degan band kiritish yoki 271¹-modda yaratilib unda "mamuriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs aniqlangunga qadar mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni to'xtatish" degan modda kiritilib unga muvofiq ushbu kodeksning 36-moddasida ko'rsatilgan muddat tugagunga qadar mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni to'xtatib turish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi "Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi";-LEX.UZ



References:

1. Кушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасалари фаолиятида тадбиркорликнинг ўрни //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 16-20.
2. Кушбоқов Ш., Самадов М. Ички ишлар органлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни ўрни //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 73-76.
3. Алтмишев Т., Кушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумларнинг сайловга оид ҳуқуқларини таъминлаш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. Special Issue. – С. 112-114.
4. Qushboqov S. Jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatidagi tushunchasini yoritishda nazariy tahlil //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2 Part 2. – С. 49-52.
5. Кушбоқов Ш., Турниёзов Ж. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми ҳуқуқий тартибга солиш истиқболи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-55.
6. Кушбоқов Ш. Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.
7. Кушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларининг юридик шахс сифатидаги тушунчасининг таснифи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 58-63.
8. Qushboqov S., Mamatova D. yangi O'zbekistonda huquqbuzarlik profilaktikasining o'rni //current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 37-39.
9. Охунов, З., & Кушбоқов, Ш. (2022). Талабалар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(11), 34-39.
10. Qushboqov S., Zamonov X. Shaxsning hayoti va sogligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishning oziga xos xususiyatlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 79-84.
11. Охунов З., Кушбоқов Ш Т. Т. С. Э. Ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 34-39.
12. Qushboqov S., Tilabov S. Kiber jinoyatlardan saqlanishda umumiy profilaktikani o'rni //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 67-69.
13. Qushboqov S. X., Usipbekov N. J. Yurtimizda mahkumlarni ozodlikka tayyorlashda amalga oshirilgan islohotlar va ulardan kutilayotgan natijalar //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 179-182.



14. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
15. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
16. Tashtemirov, A., & Po'latov, A. (2024). Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari. *Инновационные исследования в науке*, 3(1), 75-78.
17. Таштемиров А. А. и др. Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.